



## Pain Behind the Silence

Nishonova Mohidil

4th-year Student Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article explains how women can protect their violated rights and how women subjected to violence are protected by the state. It also demonstrates the principle of equality between women and men, emphasizing that both genders have equal rights and opportunities in all spheres of life. The events described in the article are based on real-life situations.

**Keywords:** women subjected to violence, protection order, legal services, gender equality, material damage.

### *Sukut ortidagi iztirob*

**Muallif:** Nishonova Mohidil

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti 4-kurs talabasi*

*Anotatssiya: ushbu maqola ayollarning buzilgan huquqlarini qanday himoya qilishi, zo’ravonlikka uchragan ayollarning davlat tomonidan qanday himoya qilinishini o’rgatadi va ularning teng huquqliligi va har qanday sohada ayollar va erkaklar teng imtiyozlarga ega ekanligini ko’rsatib beradi. Maqoladagi voqealar real voqelikka asoslangan.*

*Kalit so’zlar: Zo’ravonlikka uchragan ayollar, himoya orderi, yuridik xizmatlar, teng huquqlilik, moddiy zarar.*

*Bugungi kunda ayollar huquqlari haqida ko‘plab qonunlar va xalqaro hujjatlar qabul qilinayotgan bo‘lsa-da, afsuski, ayrim ayollar hanuz oilaviy zo‘ravonlik va tazyiq qurboni bo‘lib kelmoqda. Men ushbu mavzu haqida yozishga bejiz qaror qilmadim. Chunki yashab turgan mahallamizdagi bir ayol yillar davomida turmush o‘rtog‘i tomonidan ruhiy va jismoniy zo‘ravonlikka uchradi. Doimiy qo‘rquv, tahqirlash va*



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

*bosim natijasida uning ruhiy holati og‘irlashib, hatto aqliy salomatligiga ham jiddiy zarar yetdi. Bundan tashqari shu kabi holatlarni o‘z faolyatim davomida juda ko‘p ko‘ryapman, ajrimlarning ko‘plari ham turmushi davomida zo‘ravonlikka, tazyiqqa uchragan ayollardan iborat. Bu nafaqat ayolning o‘ziga balki farzadlarining kelajagiga ham salbiy ta‘sir qiladi deb o‘ylayman. Bu holat meni chuqur o‘ylantirdi. Axir ayol ham inson, uning ham sha‘ni, qadr-qimmati va erkin yashash huquqi bor. Shunday ekan, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bugungi jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Men bu maqolani yozishimdan maqsadim har bir ayol o‘z huquqlarini oz bo‘lsada tushinishidan umidvorman.*

*Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olish maqsadida dunyo miqyosida ko‘plab qonun va konvensiyalar qabul qilingan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ham demokratik davlat sifatida ayollar huquqlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning teng huquqliligi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida Qonun, Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun ayollarni himoya qilishning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mehnat qonunchiligida ham ayollarga berilgan imtiyozlar talaygina, masalan o‘z ish joyidan mahrum bo‘lmagan holatda, homilador ayollar dekretga chiqishi, uch yoshgacha farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishi mumkin. Jamiyatimizda ayollar va erkaklarning siyosiy va ijtimoiy huquqlari ham teng qilib*



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

*qoyilgan, jumladan prezidentimizning 95-sonli qaroriga asosan 2030-yilgacha milliy kadrlar zaxirasida ayollarning ulushi 40% ga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari konstitutsiyamizga asosan Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi deyilgan. Ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikning oldini olish maqsadida esa, Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida qonun, Xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan Xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida nizom qabul qilingan, ushbu Qonunlarning asosiy mohiyati — ayollarni har qanday tazyiq, zo'ravonlik va kamsitishlardan huquqiy jihatdan himoya qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Ushbu qonunlar nafaqat sodir bo'lgan zo'ravonlik holatlariga, balki uning oldini olishga ham qaratilgan. Ya'ni, o'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish, maxsus markazlarda, shuningdek bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish, ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqda xabardor qilish, sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlik natijasida o'ziga etkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish huquqiga ega. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi. Xotin-qizlarining oilaviy turmush muammolarini bartaraf etishga ko'maklashish,*



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

*hayotiy haq-huquqlarini munosib himoya qilish, ularning maishiy zo‘ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish, hayotini qayta yo‘lga qo‘yishda moddiy va ma‘naviy, tibbiy-psixologik yordam berish maqsadida “1146” qisqa raqamli Ishonch telefoni o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ayollarning huquqlarini yanada himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 3897-sonli qarorida ham aynan masalalar ilgari surilgan. Mazkur qonunlarga ko‘ra, har bir ayol zo‘ravonlikdan himoyalani, erkin yashash va o‘z huquqlaridan foydalanish huquqiga ega.*

*Bu esa ayollarning yolg‘iz emasligini va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini anglatadi. Eng muhim jihati shundaki, ushbu qonun jamiyatda “zo‘ravonlik normal holat emas” degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi. Ya‘ni u nafaqat jabrlanuvchini himoya qiladi, balki butun jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi kurashishni maqsad qiladi. Har qanday shaklda ayollarning manfaatlarini va huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini belgilab qo‘yadi. Ayollar huquqlarini himoya qilish — inson qadr-qimmatini, adolat va tenglikni ta‘minlashning muhim shartidir. Jamiyatda ayollarga nisbatan hurmat va e‘tibor kuchaysa, oilalar ham mustahkam va barqaror bo‘ladi. Ayniqsa, zo‘ravonlikka qarshi kurashish har bir insonning fuqarolik burchi hisoblanadi. Chunki bir ayolning ko‘rgan zulmi nafaqat uning hayotiga, balki farzandlari va jamiyat kelajagiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli har bir inson ayollarning sha‘ni, huquqi va erkinligini hurmat qilishi, ularni himoya qilishga befarq bo‘lmasligi lozim. Zero, ayol qadrlangan jamiyatda tinchlik, mehr-oqibat va taraqqiyot hukm suradi.*

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

*Ayolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun, PQ 95- sonli qaror O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*